

3.Yakunlovchi qism. (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha yakuniy xulosa yasaydi, muhim jihatlariga ishtirokchilar diqqatini jalb qiladi, mavzu yuzasidan savollarga javob beradi.	Tinglaydilar	
	3.2 Guruh faollarini, alohida ishtirokchilarni baholaydi, o'zaro baholash natijalari bo'yicha xulosa qiladi.	Tinglab, yozib oladilar.	
	3.3 O'quv mashg'ulotining maqsadiga erishish darajasini tahlil qiladi va baholaydi.	Tinglaydilar	
	3.4 Uy vazifa beradi: Mavzu bo'yicha «Klasterga» tuzib kelish.	Tinglab, yozib oladilar.	

Dars rejası:

1. Maxsus materialshunoslik xaqida umumiy ma'lumot.
2. Tikuvchilik gazlamalrı turları va ishlatılıshı.
3. Maxsus materialshunoslik faninig maqsadı va vazıfaları.

Tayanch tushunchalar: maxsus materialshunoslik, gazlama, to'qimachilik, avralik gazlamalari, paxta va jun, sun'iy va ta'biy tola, tolalarning olinishi, noto'qima gazlama.

Materialshunoslik bu amaliy fan bo'lib, (materiallarni yoki tuqimachilik mahsulotlarini) tuzilishini, hususiyatini va sifatini aniqlaydigan fandır. Bundan tashqari ishlab chıqarılادigan mahsulotlarni olinishi tehnologiyasi haqida umumiy ma'lumotlar beradi. Materiallarga yoki tuqimachilik mahsulotlariga tolalar va ulardan ishlab chıqarılادigan har hil gazlamalar (matolar, to'qımalar, trikotaj buyumlari, attorlik buyumlari, pahtasimon mahsulotlar) va boshqalar kiradi. Materialshunoslik fani amaliy fan bo'lganligi uchun asosan himiya, hikmat, rıyozıyot kabi aniq fanlarni rıvojlanishi asosida o'sib boradi va bu fanlar bilan chambarchas bog'lıqdir, chunki materialshunoslikda qo'llanuvchi usullar himiya fani usullariga tayansa, unda qo'llanuvchi asbob - uskunalar hikmat faniga tegishli tajribadan olingan dastlabki natıjalarıni jamlash tegishli qonuniyatlarni mujassamlash rıyozıyot fani qoidalaridir. Materialshunoslik fanining halq ho'jaligida ahamiyati beqiyosdir. Chunki ishlab chıqarılادigan mahsulotning sifatini oldindan loyihalash, mahsulotni olish uchun sarflanadigan hom ashyo masalalarini aynan shu fan hal qiladi. Shuning uchun ham har bir tehnolog va iqtisodchi o'zining mutahassislik fanlari bilan o'rganadilar. Tikuvchilik materialshunoslik fani barcha turdagi tikuvchilik buyumlarini sanoatlashgan holda ishlab chıqarishdan buyon tikuvchilik buyumlari uchun ishlatiluvchi materiallarni olinishi tehnologiyasi ularni tuzilishi sifati va turlari haqida ma'lumot beradi shu jumladan materiallarni sifat, hususiyatlarini aniqlash usullari va uskunalar bilan ishlash usullarini o'rgatadi. Tikuvchilik sanoatida ishlatılادigan materiallarni barchasini vazifasiga ko'ra 6 guruhga bo'lishlik qabul qilingan:

1. Asosiy kiyimlar- kiyimlarni ustki qismiga ishlatuvchi materiallar (Gazlamalar, sun'iy va tabiiy mo'ynalar, charmlar).
2. Astarli va katbob (prikladochniy) materiallar turli hildagi pahtadan, tabiiy va sun'iy ipakdan ishlab chıqarılان shoyi va yupqa, satin trikotaj usulida to'qılان matolar.
3. Kiyimning issiqlik saqlay olishini oshiruvchi materiallar (pahta, vatin, sun'iy mo'ynalar).
4. Kiyim bo'laklarini biriktirish uchun ishlatuvchi materiallar (iplar, kalava, elimlovchi moddalar).
5. Bezak materiallari (Jiyaklar, tasmalar, turli hildagi bog'ichlar).
6. Yordamchi materiallar (Tugma, iplar).

Yuoqorida nomlari keltirilgan tikuvchilik materiallari asosan to'qimachilik sanoati mahsulotlari bo'lib, asosan tolalardan ishlab chıqarılادı. Shuning uchun ham tikuvchilik